

**BANK KREDITLARI VA BANKDAN TASHQARI OLINGAN
QARZLAR BO`YICHA XISOB-KITOBBLAR AUDITINI O`TKAZISH
TARTIBI.**

Ergashev Olloyor Furqat o`g`li
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Samarqand filiali assistenti
[*oolloyor@mail.ru*](mailto:oolloyor@mail.ru)

***Annotatsiya:** ushbu maqolada bank kreditlari va bankdan tashqari olingan kreditlar auditi va ushbu muamalalar bo`yicha muammolar, bank kreditlari va bankdan tashqari olingan qarzlarni bo`yicha xisob-kitoblar auditini o`tkazish tartibi haqida fikr va mulohazalar bayon etilgan.*

***Kalit so`zlar:** audit, bank krediti, qarz, xisob-kitoblar.*

Bank kreditlari va qarzlarni bo`yicha xisob-kitoblarni auditorlik tekshiruvidan utkazish uchun auditor Uzbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini tartibga soladigan quyidagi me`yoriy xujjatlarga asoslanishi kerak:

Bank kreditlari va qarzlarni xisobini auditorlik tekshiruvidan utkazishdan maqsad korxonaning olingan kreditlar va boshqa qarz mablaglarini aks ettiruvchi xisobot kursatkichlarining ishonchliligi tugrisida yetarli dalil-isbotlarga ega bulishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagilar tekshirilishi kerak:

- kreditlar va qarzlarning xakkoniyligi xamda xujjatlashtirilmaganligini;
- kreditlar va qarzlarni olinishsning asoslanganligini aniklash (qarz mablaglarining olingan manbalari);
- qarz mablaglardan maqsadli foydalanish va ularni tulik xamda uz vaktida qaytarish (qarz mablaglari kaysi maqsadlar uchun ishlatilgan, kreditlar va qarzlarni bo`yicha qarzdorlik kandy qaytarilmoqda, muddati uzaytirilgan qarzdorlik mavjudligi);

- qaytarilmagan kredit va qarzlarning koldiklari xamda ular bo`yicha foizlar tulanishini baxolash;
- kreditlar va qarzar bo`yicha sintetik xamda analitik xisobning yuritilishini tekshirish (kreditlar va qarzlarni xisobga oladigan schyotlarning kullanilishi, qarz mablaglarini olish va qaytarish muomalalarini aks ettirish, moliyaviy natijalarni shakllantirish tamoyillariga rioya kilinishi).

Auditorlik dalil - isbotlarga ega bulish uchun turli usullar (xujjatlarni tekshirish, muomalalarni kupib chikish, uz mablaglari bilan qarzar mablaglarning nisbatinianiqlash maqsadida analitik amallarni bajarish) va axborot manbalaridan foydalaniladi.

Auditor korxonaning moliyaviy xisoboti bo`yicha kredit layokatini xam kiskacha taxlil qilishi zarur.

Bozar ikgisodiyoti sharoitida korxonaning kredit layokatini taxlil qilish uchun mamlakatimiz ikgisodchi olimlari: A. Abdukarimov, E.Akromov, Ye. Yergeshov, M.Pardaev, N. Xasanov va A. Shoalimovlarning asarlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Bank kreditlari va qarzlarni auditorlik tekshiruvidan utkazishda quyidagi ma'lumot manbalaridan foydalaniladi:

- bank kreditlari va qarzar olish masalalarini, buxgalteriya xisobini va solikka tortish muomalalarini tartibga soladigan me'yoriy xujjatlar;
- bank kreditlari va qarzar bo`yicha muomalalarni rasmiylashtirish va xisobda aks ettirishga doir shartnomalar va dastlabki xujjatlar. Bularga: kredit. shartnomalari va qarzar shartnomalari, kreditlar bo`yicha foiz stavkalarining uzgarishi tugrisida kredit shartnomalariga kushimcha kilinadigan bitimlar, kreditni qaytarish muddatlari, kredit shartnomalarining boshqa shartlari, korxonashaxsiy schyotlarining kredit va qarzar xarakatigadoyar bank firmalari, Kredit shartnomasiga muvofik qaytariladigan kredit va foiz summalarining akseptsiz (roziliksiz) xisobdan uchirilishini tasdiklaydigan memorial-orderlar kiradi.

Yukorida kursatilgan muomalalarni xisobda aks ettirishgs doir sintetik va analitik xisob registrlari xamda buxgalteriya xisobotlari puxta tekshiruvdan

utkaziladi. Mazkur soxani tekshirish uchun zarur axborotlar moliyaviy xisobotning kuyidaKi shakllarida aks ettiriladi: buxgalteriya balansida (I-shakl) (balans passividagi P-Majburiyatlar bulimining uzok muddatli bank kreditlari (570 satr), Uzok muddatli qarzlar (580 satr), kiska muddatli qarzlar (740 satr) moddalari); Moliyaviy natijalar tugrisidaKi xisobot (2-shakl)da foiz kurinishidagi xarajatlar (180 star), Valyuta kursa i farkidan daromadlar (150 satr), foiz shaklidagi xarajatlar (180 satr) moddalari; Pul olishlari tugrisidaKi xisobotda (4-shakl) olingan va tulangan foizlar (110 satr), Uzok va kiska muddatli kreditlar va qarzlar bo`yicha pul tushumlari va tulovlari (150 satr);

investitsion faoliyatning sof pul kirimi va chikimi (100 satr = 060 satr 070 satr :i: 080 satr :i: 090 satr) (agar ushbu maqsadlar uchun kreditlar va qarzlar jalb kilingan bulsa).

Bularni tekshirish uchun auditorga korxonada kulanilayotgan buxgalteriya xisobi shakliga xos quyidagi sintetik va analitik xisob registrlari takdim kilinadi:

agar jurnal-order shakli kulanilsa, 4 va 12 jurnal- orderlar;

agar xisob ishlari kompyuterlashtirilgan bulsa, 6810, 6840, 7810, 7820, 7830 va 7840 - schyotlar bo`yicha kompyuter shakllari, analitik vedomostlar va bosh daftar.

Tekshiruvning ushbu soxasiga kirishishdan oldin auditor kredit va qarz shartnomalari urtasidagi asosiy farqlarni bilishi lozim.

№21 - Bxms ga muvofik kredit va qarzlardan foydalanganlik uchun tulanadigan foiz tulovlari moliyaviy Faoliyatga doir chikimlar tarkibida xisobga olinishi; ya`ni moliyaviy natijalarga - 9610 Foiz kurinishidagi xarajatlar (schyotining debetiga olib borilishi, solikka tortish maqsadida esa foyda soligi bo`yicha konunchilik talablariga muvofik xisobga olinishi lozim.

Foizlarni xisobga olishning shunga uxshash tartibi ishlab chikarish zaxiralari sotib olish uchun olingan qarz mablaglari bo`yicha xam kulaniladi. №4 -Tovar-moddiy zax ralar nomli BXMSGa muvofik korxonalar kredit uch: tulovlarga doir xarajatlarni, agar bular sotib olish bilan boglik bulsa, moddiy

ishlab chikarish zaxiralarning xakikiy tannarxiga kushiladi. Bu tartibga sotib olingan tovar moddiy zaxiralarni omborga kirim kilinishiga kadam rioya qilishi, undan sung esa foizlar odatdagi tartibda xisobga olinadi.

Kredit va qarzlarni xisobga olishning tashkil etilishini tekshirishda auditor olingan kreditlar bo`yicha koldiklar kandy baxolanayotganligini xam aniklashi zarur.

Bank kreditlari bo`yicha xisob-kitoblar auditi.

Bank kreditlarini jalb qilish iktisodiy isloxotlarni chukurlashtirish, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning kushimcha manbalaridan xisoblanadi.

Korxonalar bilan bank urtasidagi kredit munosabatlari tomonlarning uzaro majburiyatlari va ma`suliyatlarini belgilaydigan, kredit shartnomalariga asosan tartibga solinadi.

Tekshiruv chogida auditor kredit shartnomalarining xakikatda mavjudligini, ularning Uzbekiston Respublikasi Fukarolik Kodeksi va boshqa tegishli me`yoriy xujjatlarning talablariga javob berishini aniklaydi.

Uzbekiston Respublikasining Fukarolik Kodeksiga muvofik kredit shartnomalari kredit munosabatlarini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bulgan banklar yoki boshqa kredit tashkilotlari bilan tuziladi.

Auditor shartnomalarni taxlil kilib, ularda quyidagi masalalar uz aksini topganligini aniklaydi:

- kredit berishning maqsadi;
- kredit muddatlari;
- kreditni berish va qaytarish tartibi xamda shartlari;
- majburiyatlarni ta`minlash shartlari;
- foiz stavkalari, foizlarni to`lash tartibi va muddatlari;
- kreditni berish va qaytarish bo`yicha tomonlarning majburiyatlari, xukuklari va ma`suliyatlari;
- bankka takdim kilinadigan xujjatlar ruyxati va takdim qilish muddatlari boshqa shartlar.

Auditor kreditlarning maqsadga muvofik sarflanishini va ssuda qarzlarni qaytarish tartibini (pul mablaglari kurinishida, veksel berish yuli bilan, uzaro qarz surishish orkali) aniklashi kerak. Kreditlarni qaytarishning tulikligi va uz vaktidaligini auditor bank kuchirmalari bo`yicha tekshiradi.

7810- «Uzok muddatli bank kreditlari» schyoti bo`yicha uzok muddatli kreditlarning qaytarilishigacha 12 oy tulmasdan, xisobot tuzishda qaytarilmagan koldik kiska muddatli qarz tarkibida kursatiladi.

Auditor kreditlar bo`yicha muddati utib ketgan qarzar mavjudligini tekshiradi, uz vaktida qaytarilmaslik sabablarini va ularni qaytarish uchun kaday choralar kurulayotganligini aniklaydi. Bunda bank ssudalari bo`yicha muddati utib ketgan qarzar mavjud bulganida kreditlar uchunfoiz stavkalarining kaday farilib borganini aniklashi zarur. Chunki bu korxonada daromadlariga salbiy ta`sir kursatadi. 6810-kiska muddatli bank kreditlari yoki 7810-uzok muddatli bank kreditlari schyotlari bo`yicha 5110-xisob kitob schyoti 5210-Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari bilan boglangan debet yozuvlarini taxlil kilib, auditor olingan kreditlarning uz vaktida qaytarilishini tekshiradi.

Amaliyotda auditor ayrim kreditlarning muddati, bir yoki bir necha marta uzaytirilganligini uchratishi mumkin. Bunday xollarda auditor kreditlarni uz vaktida qaytarish imkoniyati xakida va kurulgan zararlarning xajmi tugrisida fikr bildirishi lozim.

Auditor kreditlarning qaytarilishi ta`minlanganligi masalalariga xam e`tibor karatishi zarur. Kafillik kafolat xati, kimmatli kogozi, tovarlar va boshqa mulklarnigarovga kuyish kredit ta`minotining asosiy turlaridir. Shulardan garov tugrisidagi shartnomalar keng tarkalgan. Bunda quyidagilarni tekshirish zarur: garov tugrisidagi shartnomaning xakkoniyligi, uning yuzaki tuzilmaganligi, unda garovga kuyilgan mulklarning kanchalik anik kursatilganligi va xokazo.

Kreditlar xisob-kitob schyoti yoki valyuta schyotidan pul utkazish, xamda kimmatli kogozlarni berish yuli bilan qaytarilishi mumkin.

Auditor kreditlardan foydalanganlik uchun foiz summalarining kanday schyotlarda aks ettirilganligi yoki kaysi manbalar - moliyaviy natijalar yoki boshqa manbalar xisobidan koplanganligini tekshiradi.

Foizlar tulanishini tekshirishda ular tannarxga kushilganligini aniklash zarur. Umuman olganda bu moliyaviy natijani buzib kursatmaydi, lekin uslubiyotdan chetga chikishga olib kelishi mumkin. Bu uz navbatida moliyaviy natijalar tugrisidagi xisobot (2-shakl)da aks etgirilgan, foyda tarkibi shakllanishini, bunday summalar katta bulganida esa tulangan foizlar moddasi kursatkichlarining buzib kursatilishiga olib keladi kKoidabuzarliklarning bunday turini aniklash va yetarli darajada auditorlik dalillariga ega bulish uchun xujjatlarni tekshirish va kredit uchun foiz summalarining arifmetik xisob-kitobi kabi usullardan foydalanish makeadga muvofikdir. Tekshiruvda axborot manbalari yeifatida kredit shartnomalari, analitik xisob registrlari va xisob-kitoblar xamda foizlarni aks etgirish bo`yicha buxgalteriya ma`lumotnomalaridan foydalanish zarur.

Korxonalar amaliyotida qarz mablaglar xisobidan sotib olingan mulklarni baxolashda xatolarga yul kuyish xollari uchrab turadi. Auditor tomonidan aniklangan, baxolash tamoillarining buzilish xollari uzok muddatli aktivlar (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va shunga uxshashlar)ni sotib olish kiymatiga, kapital mablag bilan ta`minlashga olingan kreditlar uchun foizlar, ushbu ob`ektlar balansga kabul kilin-ganidan sung kushilgan xollarda yuzaga keladi.

Me`yoriy xujjatlarda kapital xarajatlarni amalga oshirishda kreditlarning foiz tulovlarini ob`ektlarning boshlangich kiymatiga kushishga, ular balansga kabul kilinishiga kadar amalga oshirishga ruxsat etilgan. Ob`ektlar balansga kabul kilinganidan sung tulangan kredit uchun foizlar dastlabki kiymatga kushilmaydi, balki moliyaviy natijalarga olib boriladi.

Kredit va qarzlarni tekshirish doirasidagi byudjet bilan xisob-kitoblar tekshiruvi bilan kesishadigan amallar bo`yicha kapital xarajatlarni mablag bilan ta`minlashga foyda soligi bo`yicha imtiyoz summalari asoslanadi.

Agar asosiy vositalar kredit xisobidan sotib olingan balsa, auditor korxonaning mazkur imtiyozlardan foydalanganligini tekshirishi lozim. Bunda quyidagi koyda buzarlklar aniklanishi mumkin:

- imtiyozning bankdan tashkari olingan kreditlar uchun kullanilganligi;
- xisoblangan, ammo xisobot davrida tulanmagan foiz tulovlari xam imtiyozga kiritilganligi. solik konunchiligiga muvofik foyda soligi bo`yicha imtiyoz summasini xisoblashda fakat xakikatda kilingan xarajatlar va chikimlar xisobga olinishi mumkin. Kapital xarajatlarni mablag bilan ta`minlash maqsadida olingan va ishlatilgan bank kreditlarini qaytarish uchun imtiyoz, kapital xarajatlarga yunaltirilgan summalar doirasida, ya`ni imtiyoz summalarini xisoblash uchun fakat xakikatda bankka tulanagan foizlar doirasida beriladi;
- foizlar oldindan kapital xarajatlar tarkibida xisobga olinib kuyilganda, qayta kushilishi;
- nomoddiy aktivlar yoki kimmatli kogoslar sotib olish uchun sarflangan kredit mablaglari uchun foizlarning imtiyozga kushilishi solik konunchiligiga muvofik nomoddiy aktivlarni sotib olish yoki yaratish bilan boglik xarajatlar, ishlab chikarishga muljallangan kapital xarajatlarni mablag bilan ta`minlash uchun imtiyoz berishda xisobga olinmaydi.

Foizlarni aks ettirishda yul kuyilgan xatolar moliyaviy natijalar shakllanishiga ta`sir kursatadi. Auditor korxonaning uz mablag. manbalarining xisobiga xisobdan uchirilgan quyidagi dalillarni aniklashi lozim:

Uzbekiston Respublikasi Markaziy Banki xisob stavkasi pasaygan xolda, kredit uchun foizlarning undan oshgan kismi (agar shartnomada foizlar uzgarishi kuzda tulanmagan balsa);

joriy faoliyat uchun olingan kreditlar bo`yicha uchta punktga oshirilgan, xisob stavkasidan oshgan foizlar, xamda valyuta kreditlari bo`yicha belgilangan stavkalaridan oshgan foizlar;

Shunday kilib, kredit shartnomalarini tekshirish chogida auditor quyidagilarga e`tibor karatishi lozim:

- kreditlar bo`yicha foiz stavkalarining xajmi;
- kreditlar bo`yicha Foizlar stavkasining Uzbekiston Respublikasi Markaziy Banki qaytadan mablag bilan ta'minlash (remoliyalashtirish) stavkasiga nisbati;
- kredit shartnomalari bo`yicha foizlar stavkalarini Uzbekiston Respublikasi Markaziy Banki qaytadan mablag bilan ta'minlash stavkalarining uzgarishiga boglik xolda uzgartirish kuzda tugilganligi. Bu Xarajatlar tarkibi tugrisidagi Nizomga muvofik Uzbekiston Respublikasi Markaziy Banki kreditlari bo`yicha yangidan urnatilgan stavkalar yangidan tuzilgan va muddati uzaytirilgan shartnomalarga, xamda xisob stavkalarining uzgarishi kuzda tutilgan, oldin tuzilgan shartnomalarga xam kulaniladi. Mazkur koida kapital xarajatlarni mablag bilan ta'minlash uchun olingan kreditlarga kulanilmaydi.

Korxonalar amaliyotida, Uzbekiston Respublikasi Markaziy Banki xisob stavkasini kredit shartnomasida begilangan foiz stavkalaridan pasaytirganida, Uzbekiston Respublikasi Markaziy Bankining yangidan belgilangan stavkasidan oshgan kismini, kursatilgan foizlarni uz manbalari xisobiga xisobdan uchirib, uz manbalari xisobiga olib borish xollari uchraydi. Bunda korxonona uz faoliyati natijalarini shakllantirish tamoillarini buzadi.

Xorijiy valyutada olingan kreditlarga doir muomalalarni buxgalteriya xisobida aks ettirish tartibi milliy valyutadagi ya'ni sumda olingan kreditlarni aks ettirishga uxshash. Ammo bundan kreditlarni tekshirish chogida auditorularning olinish xususiyatlarini xisobga olishi lozim. Chunki, ular valyuta muomalalari katoriga kiritilib, xususan, norezidentlardan jalb kilingan kreditlar kuriishida olingan valyuta mablaglari kirimi majburiy sotilmaydi. Bunda valyutada olingan kreditlar bo`yicha kurs tafovuglarini aniklash va aks ettirishning tugriligini tekshirish zarur.

Kurs tafovuglarini xisoblash Chet el valyutasida amalga oshipiladigan muomalalarni buxgalteriya xisobi, statistikia 6oshka xisobotda aks ettirish tartibiga muvofik amalga oshiriladi.

Shunindek, auditor kreditlarning turlari bo`yicha schyotlar rejasining tugri kullanilishini, ushbu schyotlar bo`yicha sintetik va analitik xisobning kandy tashkil etilganligini, analitik xisob ma`lumotlarining sintetik xisob registrlari va Bosh daftar ma`lumotlariga mosligini tekshiradi. Analitik xisobning tashkil etilishi xar bir shartnoma bo`yicha va kreditlarning turlari bo`yicha tekshiriladi.

Bozor iktisodiyoti sharoitida korxonalar bank kreditlaridan tashkari boshqa qarz beruvchilarning mablaglarini xam jalb qilish imkoniyatlaridan foydalanishlari mumkin. Masalan, boshqa korxonalardan qarz olish, kimmatli kogoslar (obligatsiyalar) chikarib sotish, moliyaviy veksel berish va shu kabilar. Lekin moliyaviy veksel kurinishidagi qarzdin foydalanish ma`lum doiradagi investorlar uchun ruxsat etiladi; qarzlarga -doir muomalalarni auditorlik tekshiruvidan utkazish uslubiyoti asosan kreditlarga doir muomalalar auditidan fark kilmaydi. Auditor qarz shartnomasining tugri rasmiylashtirilganligi va tuzilganligiga ishonch xosil qilishi lozim. qarz shartnomasi kredit shartnomasiga karaganda soddapok rasmiylashtiriladi. Uning mazmuni vashakli xamda boshqa jixatlari Uzbekiston Respublikasi Fukarolik Kodeksi 732-739 moddalarida bayon etilgan.

Korxonalar uchun yozma shakldagi shartnomaning yukligi noxush okibatlariga olib kelishi mumkin (Masalan, qarzlardan foydalanganlik uchun foizlar miksoni, qarzni qaytarishtartibi va muddatlari, bo`yicha munozarali masalalar yuzaga kelganida; xatto tomonlar urtaeida kelishmovchiliklar bulmaganida xam solik organlari qarz shartnomasi bo`yicha muomalalarni amalga oshirish faktlarini tasdiklovchi xujjat shartnomaning yukligi bilan boglik da`vo klishi mumkin).

Korxonalar boshqa yuridik shaxselardan (banklardan tashkari) qarz olishlari mumkin. Buxgalteriya xisobida qarzlalar xam kreditlar kabi, kiska muddatli (bir yil muddatgacha beriladigan) va uzok muddatli (bir yildan oshik muddatga beriladigan) qarzlarga bulinadi.

Qarz shartnomasi kup xollarda qarz oluvchi oldiga quyiladigan ma'lum shartlarga rioya qilish sabablarini uz ichiga oladi. Bunday shartlarga, xususan, quyidagilar kiradi:

- uz aylanma mablaglari va daromadlarining darajasi;
- kreditorga vakt-vakti bilan ma'lumot takdim kilib turish.

Ayrim qarz shartnomalariga majburiyatlarni bajarmaslik bilan bog'lik bulgan, jumlar kiritilgan bulib, majburiyatlar bo'yicha oldingi tulovlar tulanmaganligi yoki boshqa kelishuvlarning buzilganligi okibatida kreditorning tulovni tezlashtirishi mumkin. Kelishuv yoki shartlarning buzilishi qarzdor oldiga qarz majburiyatlarini kiska muddatli qarz deb tasniflash talablarini, agar kreditor bunday talabni rad kilmasa, keltirib chikarishi mumkin.

Olingan qarzlarning asoslanganligi va konuniyligini u xam tekshirish zarur.

Agar auditor qarz shartnomasining u xakkoniyligiga shubxalansa, u xolda berilgan qarz bo'yicha qarzdorlikni, qarz summasi va qaytarish muddatlari kelishilganligini tasdiklatish maqsadida qarz bergan tashkilotga, surov xati yuborishni tavsiya qilishi maqsadga muvofik .

Agar ushbu summa, qarz bergan tashkilotda xisobda yuk bulsa, u xolda qarz olgan tashkilot bilan solishtiruv dalolatnomasi tuzilganidan sung, u daromad sifatida aks ettirilib, undan umum kabul kilingan tartibda soliklar xisoblanishi lozim.

Qarz berish va qaytarishning ayrim xususiyatdari mavjud bulib, unga aloxida e'tibor berish zarur.

Auditor qarzning kandy shaklda - pul yoki buyum shaklida olinganligi va qaytarilganligini aniklashi kerak. Amaliyotda qarz shartnomasi shartlariga muvofik korxonona pulli qarzga olib, ma'lum muddat utganidan sung uni mulk yoki kimmatli kogos bilan qaytarish uxollari uchraydi. Bunday xollarga shartnoma shartlariga uzgarish kiritmasdan yul kuyish mumkin emas.

Qarzlarning qaytarilishini tekshirishda ularning kimmatli kogoslar bilan, ularni nominal kiymatidan yukoribsoda sotish yuli bilan qaytarilishiga,

shuningdek berilgan veksel bo`yicha qarzni xisobga olishni tekshirishga; xorijiy valyutada berilgan qarzlarni bo`yicha kurs tafovutlari va qarzlarni ularning ishlatilish yunalishlari bo`yicha xisobda aks ettirishga e'tibor karatiladi.

Auditor qarzlardan foydalanganlik uchun tulanadigan foizlarning tugri xisoblanganligi va xisobda aks etirilganligini aniklaydi.

Kredit shartnomasi foizli bulib, qarz shartnomasi esa farkli ularok uxam foiz tulanadigan, xam foizsiz (begaraz) bulishi mumkin.

Shunday kilib, olingan kreditlar va qarzlarni bo`yicha xatolarga yul kuyish xavfiga quyidagi ta'sir kupcatadi:

- kredit munosabatlarini rasmiylashtiradigan xujjatlar yukligi;
- kreditlar va qarzlarni bo`yicha foizlarning maxsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga kushilishi;
- mulklarni baxolash tamoillarining buzilishi;
- kreditlar xisobidan kilingan kapital xarajatlarni mablag bilan taminlashga foydasoliki bo`yicha imtiyozlarni notugri kullash;
- moliyaviy natijalarni shakllantirish tamoillarining buzilishi.

Tekshiruv natijalarini umumlashtirib, auditor korxonaning kelajakda uz faoliyatini davom ettira olish layokati tugrisida xulosa kiladi, yani amaldagi korxonaga tamoyiliga kandy rioya kilinayotganligini aniklaydi.

Tekshiruvning ushbu bulimi bo`yicha, amaldagi korxonaga nisbatan muammolarni kursatuvchi malumotlar quyidagilar bulishi mumkin:

shartnoma chegarasidan chikib ketgan kreditlar va qarzlarni mavjudligi;

- kreditlar va qarzlarning qaytarilmaganligi;
- foizlar tulanmaganligi;
- xususiy kapital va majburiyatlar nisbati.

Agar qarz mablaglari kapital mikdoridan oshib ketsa, unda korxonaga fakat qarz xisobiga yashayotganligini bildiradi, Agar axvol bunga teskari bulsa, unda qarzlarni kam va ular bo`yicha foizlar past, okibatda, aksiyadorlar bilan xisoblashish xamda dividendlar to`lash uchun korxonada foyda yetarli ekanligini bildiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi – "Audit asoslari" (2017 y.).
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki – "Bank operatsiyalari va kreditlash tizimi" (2016 y.).
3. S. A. Azybayeva – "Xisob-kitoblar auditining nazariy asoslari" (2018 y.).
4. I. A. Khayrullayev – "Audit: Nazariy va amaliy yo'riqnomalar" (2015 y.).
5. T. B. Tursunov – "Moliya hisobi va audit" (2019 y.).
6. O'zbekiston Respublikasi Banklar Assotsiatsiyasi – "Bank hisobi va audit" (2020 y.).
7. S. Z. Safarov – "Qarzlilar va kreditlar bo'yicha hisob-kitoblarni audit qilish" (2021 y.).
8. K. S. Akhmedov – "Audit amaliyoti" (2014 y.).
9. V. A. Davydenko – "Bank auditini tashkil etish" (2017 y.).
10. A. O. Gofman – "Kredit tashkilotlari auditini amalga oshirish" (2018 y.).